



UDK:82.9

*Nigora MAHMUDOVA,*  
*QarDU dotsenti*  
*Gulora ISAYEVA,*  
*O‘zDJTU o‘qituvchisi*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

## DIPLOMATIK TIL TERMINOLOGIYASIDA SOHAVIY SO‘Z BIRIKMALARINING QO‘LLANILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada terminlar, ularning yasalish yo‘llari va turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, diplomatiya sohasida qo‘llaniladigan sohaviy so‘z birikmalari, ya‘ni „Fachwortverbindungen“ haqida ma‘lumot beriladi. Murakkab sohaviy so‘zlarning tasnifi ularning tuzilishiga ko‘ra, turli komponentlar sonidan iborat terminlarni farqlash imkonini beradi. Shu sababdan ular ikki, uch, to‘rt yoki besh so‘zdan iborat birikmalar deya tasniflanadi. Bu kabi birikmalarga misollar keltirilib, tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Diplomatiya, terminologiya, sohaviy so‘z birikmalari, ikki komponentli, leksik birliklar, murakkab terminlar, old qo‘shimchalar, predloglar, suffikslar.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОТРАСЛЕВЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются термины, способы их образования и основные типы. Особое внимание уделяется отраслевым словосочетаниям, применяемым в сфере дипломатии, то есть так называемым Fachwortverbindungen. Классификация сложных отраслевых терминов по их структуре позволяет различать термины в зависимости от количества компонентов. В связи с этим они подразделяются на словосочетания, состоящие из двух, трёх, четырёх или пяти слов. Приводятся примеры подобных сочетаний и проводится их анализ.

**Ключевые слова:** Дипломатия, терминология, отраслевые словосочетания, двухкомпонентные единицы, лексические единицы, сложные термины, префиксы, предлоги, суффиксы.

## THE USE OF SECTOR-SPECIFIC WORD COMBINATIONS IN DIPLOMATIC TERMINOLOGY

Annotation

This article discusses terms, their methods of formation, and their main types. It also provides information on sector-specific word combinations used in the field of diplomacy, known as Fachwortverbindungen. The classification of complex sectoral terms according to their structural composition makes it possible to distinguish terms based on the number of components. Accordingly, they are categorized as combinations consisting of two, three, four, or five words. Examples of such combinations are provided and analyzed.

**Key words:** Diplomacy, terminology, sector-specific word combinations, two-component units, lexical units, complex terms, prefixes, prepositions, suffixes.

**Kirish.** So‘nggi yillarda sohaviy tillar va ularning terminologik tizimlari ko‘plab tilshunoslarning alohida e‘tiborini tortmoqda. Umuman olganda, terminologiyada turli so‘z yasash modellarini o‘rganish muammosi ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. Biroq diplomatik soha tili nuqtayi nazaridan bu masala hali yetarlicha o‘rganilmagan. Yagona so‘zlardan tashkil topgan leksik birliklardan tashqari, diplomatik terminologiyada sohaviy so‘z birikmalari (Fachwortverbindungen) ham keng tarqalgan. Diplomatiy terminologik tizimning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohada eng keng tarqalgan terminologik birlik turi — sohaviy so‘z birikmasidir (taxminan 60%).

**Adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslik adabiyotida “Fachwortverbindungen” atamasidan tashqari yana boshqa nomlanishlar ham uchraydi: terminologik so‘z birikmalari, murakkab terminlar, terminologik konstruksiyalar, terminologik komplekslar. Biz esa bu ishda “sohaviy so‘z birikmasi” atamasidan foydalanamiz.

Sohaviy so‘z birikmasi deganda bir yoki bir nechta so‘zning grammatik birikmasi tushuniladi, u muayyan maxsus tushunchani nomlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday birikmalar umumiy (tur) tushunchani bildiruvchi termini aniqlovchi xususiyatlar bilan to‘ldirish orqali hosil qilinadi. Shu yo‘l bilan “terminologik uyalar” shakllanadi, ular asosiy tushunchaning ko‘plab turli turlarini qamrab oladi. Bir kategoriyaga mansub bo‘lgan tushunchalar odatda barqaror so‘z birikmalari orqali ifodalanadi, bunda bir so‘z bir nechta birikmalar uchun umumiy bo‘lib, u tushunchaning umumiylikini bildiradi, ikkinchisi esa unga o‘xshash tushunchalardan farqini ko‘rsatadi.

Masalan, “immunitet” termini — “chet davlatda hukumat diplomatlariga beriladigan maxsus huquq va imtiyozlar” ma‘nosida — bir qator turli xil daxlsizlik turlarini aniqlashtiruvchi terminlar yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi:

- persönliche Immunität – shaxsning huquqiy daxlsizligi
- steuerliche Immunität - soliқdan ozodlik bo‘lish (soliqqa oid immunitet)
- zivilrechtliche Immunität - fuqarolik ishlari bo‘yicha daxlsizlik
- strafrechtliche Immunität - jinoyiy javobgarlikdan ozodlik.

Sohaviy so'zlarning sintaktik yo'l bilan hosil qilinishi usuli — sohaviy so'z birikmalari uchun eng sarmahsul hisoblanadi. Shu yo'l bilan murakkab terminlar deb ataluvchi barqaror birikmalar shakllanadi. Shu tarzda hosil qilingan so'z birikmalari terminologiyada murakkab yoki qo'shma sohaviy so'zlar (zusammengesetzte Fachwörter) deb nomlanadi. Tushunchalarni ifodalashning sintaktik yo'l bilan hosil qilingan murakkab terminlar yordamidagi usuli nemis tili uchun an'anaviy hodisa bo'lsa-da, ayniqsa terminologik leksikada juda sarmahsuldir. Buni shunday tushuntirish mumkin: ma'lum bir soha doirasida yangi tushuncha hali to'liq tanilmagan davrda, uni murakkab sohaviy so'z yordamida ifodalash qulayroq bo'ladi.

Sohaviy so'z birikmalari grammatik jihatdan old qo'shimchalar, predloglar va suffiksalar orqali shakllantiriladi. Shu sababli, terminologik birliklarning mazmuni sohaviy so'zlarni talqin qilishda aniqlikdan og'ishishga yo'l qo'ymaydi.

Yangi hosil bo'layotgan terminlarni tizimlashtirishga katta e'tibor beriladi. Ko'plab sohalarda muayyan toifadagi tushunchalar yoki obyekt uchun maxsus termin hosil qilish qoidalari ishlab chiqilgan.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan objekt - bu diplomatik til terminologiyasidagi sohaviy so'z birikmalaridir. Ushbu terminologiyalar ham texnik atamalarga, ham iboralarga xos bo'lgan xususiyatlarga ega.

Termin sifatida aniq ta'rifga egaligi, o'z terminologik maydonida "bir ma'nolilik (monosemiya)"ka intilishi, ekspressiv bo'yoqdorlikning yo'qligi (ya'ni hissiy yoki obrazli bo'lmasligi) va uslubiy betaraflik kabi belgilar bilan ajralib turadi. So'z birikmasi sifatida esa ular aniq sintaktik konstruksiya hisoblanadi.

Murakkab sohaviy so'zlarning tasnifi ularning tuzilishiga ko'ra, turli komponentlar sonidan iborat terminlarni farqlash imkonini beradi. Shu sababdan biz ularni ikki, uch, to'rt yoki besh so'zdan iborat birikmalar deya tasnifladik va quyida ularga misollar keltiramiz:

1. Ikki tarkibli sohaviy so'z birikmalari (yoki atamalar).

Ikki komponentli so'z birikmalari orasida A+S (Adjektiv+Substantiv), ya'ni sifat + ot shakli keng tarqalgan, masalan: diplomatische Immunität (diplomatik immunitet), persönlicher Berater (shaxsiy maslahatchi), eidelsstaatliche Erklärung (davlat bayonoti), öffentliche Audienz (ommaviy qabul), päpstlicher Delegat (papalik vakili), offizielles Gefolge (rasmiy hamrohlik), feierlicher Staatsakt (tantanali davlat marosimi), diplomatische Sprache (diplomatik til), erster Botschaftssekretär (birinchi elchixonona kotibi), regionale Vereinbarung (mintaqaviy kelishuv).

Ushbu terminologik birikmalarda sifat bilan ifodalangan aniqlovchi belgi turlarni farqlovchi rolni bajaradi. So'z birikmasi esa butun holicha ma'lum bir tur tushunchasini bildiruvchi birlik sifatida namoyon bo'ladi, bunda asosiy so'z, ya'ni ot terminning markaziy ma'nosini ifodalaydi.

2. Ikkinchi turdagi ikki tarkibli so'z birikmalari. Diplomantik terminologiya tizimida kamroq uchraydigan, lekin muhim bo'lgan tur — S(N) + S(G) (ot - nominativ + ot - genitiv) modelidagi birikmalardir. Masalan: Lokalisierung eines Konfliktes (mojaroning joyini aniqlash), Prüfung der Vollmachten (vakolatlarni tekshirish), Eintreffen des Diplomaten (diplomatning yetib kelishi), Überfliegen des Gebietes (hudud ustidan uchish), Eröffnung einer Sitzung (majlisni ochish), Grundsatz der Gegenseitigkeit (o'zaro munosabat prinsipi),

Benennung eines Kandidaten (nomzodni ko'rsatish), Verbesserung der Beziehungen (munosabatlarni yaxshilash), Oberhaupt der Regierung (hukumat rahbari), Aufrufen der Namen (ism-shariflarni o'qish).

Sarmahsullik darajasiga ko'ra, keyingi guruhni S + Präp. + S, ya'ni ot + predlog + ot shaklidagi sohaviy so'z birikmalari tashkil etadi. Masalan:

Abbruch von Verhandlungen – muzokaralarni to'xtatish,

Ernennung von Stellvertretern – vakillarni tayinlash, Aufnahme in die Tagesordnung – kun tartibiga kiritish, Abstimmung durch Handzeichen – qo'l ko'tarib ovoz berish,

Gespräche auf der Botschaftsebene – elchilik darajasidagi muzokaralar,

Anlehnung an einen Block – bir blokka tayanish (siyosiy jihatdan),

Vorstellung bei Hofe – saroyda tanishtirish (ruxsat bilan qabul),

Blockade in Friedenszeiten – tinchlik davridagi blokada,

Verweisung aus dem Saal – zal(majlis)dan chiqarib yuborish,

Wahl durch Zuruf – og'zaki (chaqiriq orqali) saylov, Registrierung von Verträgen – shartnomalarni ro'yxatga olish.

Bu modeldagi birikmalar uch komponentdan iborat bo'lib, otlar orasidagi grammatik va semantik munosabat predlog (masalan, von, in, auf, durch, bei) orqali ifodalanadi. Shu sababli, S+Präp.+S tipidagi birikmalar diplomatik terminologiyada murakkab harakatlar, jarayonlar yoki rasmiy amallarni aniq ifodalashda keng qo'llaniladi.

Ot+fe'l (S+V) tipidagi terminologik birikmalar diplomatik tildagi terminologik tizimda ancha keng tarqalgan bo'lib, ular son jihatidan uch tarkibli sohaviy birikmalarning keyingi guruhini tashkil etadi. Masalan: ein Beileidstelegramm schicken – hamdardlik telegrammasini yubormoq, die Pässe verlangen – pasportlarni talab qilmoq, eine Pressekonferenz abhalten – matbuot anjumanini o'tkazmoq, ein Ultimatum zurückweisen – ultimatumni rad etmoq, den Luftraum verletzen – havo hududini buzmoq, eine Warnung richten – ogohlantirish yubormoq, Beziehungen unterhalten – munosabatlarni saqlab turmoq, den Krieg führen – urush olib bormoq, einen Besuch absagen – tashrifni bekor qilmoq, die Debatte verkürzen – munozarani qisqartirmoq, eine Sitzung unterbrechen – majlisni to'xtatmoq, die Beschlussfähigkeit feststellen – qaror qabul qilish vakolatini aniqlamoq, Verhandlungen führen – muzokaralar olib bormoq.

Ushbu tipdagi birikmalarda, shuningdek, S+Präp.+V (ot + predlog + fe'l) modelini ham ajratish mumkin: außer Kraft setzen – kuchini yo'qotmoq (bekor qilmoq), um Hilfe bitten – yordam so'ramoq, sich an einen Vertrag halten – shartnomaga rioya qilmoq, an der Konferenz teilnehmen – konferensiyada ishtirok etmoq.

**Xulosa.** Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgacha ko'p tarkibli terminlarning qanday shakllanishi borasida yagona fikr mavjud emas. Ba'zi olimlar ularning ikki tarkibli terminlarning kengayishi natijasida hosil bo'lganini ta'kidlansa, boshqalar bu terminlar avvaldan mavjud murakkab terminlarga qo'shimcha elementlar qo'shilishi orqali yaratilganini ilgari suradilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Былинович, В. Н. О словосочетаниях как единицах терминологии / В. Б. Былинович // Романское и германское языкознание. — Минск, 1984. — Вып. 12. — С. 96–100.

2. Іващинин, О. М. Структурні особливості та семантична диференціація термінів-словосполучень у науково-технічних текстах / О. М. Іващинин // Іноземна філологія. — Львів, 1996. — Вип. 109. — С. 41–44.
3. Sager, J. Criteria for Measuring the Functional Efficacy of Term / J. Sager. — Munich: Infoterm Ser. 6, 1981. — S. 194–217.
4. Wüster, E. Die internationale Angleichung der Fachausdrücke / E. Wüster // Elektrotechnische Zeitschrift. — № 16. — S. 550–552.
5. Wüster, E. Die allgemeine Terminologielehre — ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logic, Ontologie, Informatik und Sachwissenschaften / E. Wüster // Linguistics. — 1974. — № 119. — S. 61–106.
6. Handbuch der Terminologie des Völkerrechtes (Friedenrecht) und der internationalen Organisationen / Isaak Paenson. — München — New Providence London — Paris, 1993. — 179 s.
7. Lexikon der Vereinten Nationen / Helmut Volger. — München — Wien –Oldenburg — Verlag, 2000. — 775 s.